



**TRANSPORT VOSITALARI EGALARINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI
MAJBURIY SUG'URTA QILISH SUG'URTA TURI BO'YICHA SUG'URTA POLISIDA
KO'RSATILGAN HAYDOVCHILARNI BAXTSIZ HODISALARDAN
EHTIYOT SHART SUG'URTA QILISH QOIDALARI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Qoidalar Sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi Litsenziyasi hamda "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi yohud shuning natijasida vafot etgan taqdirda Sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi Umumiy sug'urta tarmog'ining I-klassga oid sug'urta turi hisoblanadi.

1.2. Mazkur Qoidalar hamda sug'urta shartnomalariga ko'ra Sug'urta qildiruvchi - muomala layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan fuqarolar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lishlari mumkin.

1.2. Mazkur Qoidalarda ishlatiladigan atamalar mazmuni:

Sug'urtalovchi	"O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati;
Sug'urta qildiruvchi	Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan yuridik shaxslar, shuningdek muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar.
Sug'urtalangan shaxs	Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta turi bo'yicha sug'urta polisida ko'rsatilgan va uning foydasiga sug'urta shartnomasi tuzilgan haydovchi;
Assistans	Assistans - sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug'urtalovchilarga sug'urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy ko'mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;
Adjaster	Sug'urtalovchining (Sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.2-moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs;
Sug'urta syurveyeri	Sug'urtalovchining (Sug'urta qildiruvchining) topshirig'i bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunining 9.6-moddasida belgilangan xizmatlarni ko'rsatuvchi o'z shtatida tegishli mutaxassislariga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxs;
Sug'urta shartnomasi	Sug'urtalovchi bilan Sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari to'g'risidagi bitim;
Sug'urta mukofoti	Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ga asosan Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) tomonidan to'lanadigan pul mablag'i (badal);



Sug'urta polisi	Sug'urta mukofoti to'langandan so'ng, Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs)ga beriladigan Sug'urtalovchining majburiyatlarini kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat;
Naf oluvchi shaxs	Sug'urta tovonni (Sug'urta puli)ni olish uchun Sug'urta qildiruvchi tomonidan tayinlangan yuridik yoki jismoniy shaxs;
Sug'urta hodisasi	Sug'urtalangan shaxs(haydovchi)ning yo'l transport hodisasi sodir bo'lishi natijasida sog'lig'iga zarar yetishi yoki vafot etishi;
Sug'urta puli	Sug'urta hodisasi natijasida Sug'urtalangan haydovchi yoki naf oluvchi shaxsga Sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan mablag'ning eng yuqori miqdori;
Sug'urta tovonni	Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta hodisasi yuz berganda, Sug'urtalangan haydovchining sog'lig'ini tiklash uchun Sug'urta puli (ta'minoti) doirasida to'lanadigan pul miqdori;
Sug'urta agenti	Sug'urtalovchi nomidan yoki topshirig'iga binoan Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ni tuzish va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi jismoniy yoki yuridik shaxs;
Sug'urta muddati	Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ni amal qilish muddati.

II. SUG'URTA SUBYEKTI

Sug'urtalovchi bilan Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ni tuzgan muomala layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan hamda O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik va jismoniy shaxslar Sug'urta subyekti hisoblanadi.

III. SUG'URTA OBYEKTI

Sug'urtalangan shaxs (haydovchi)ning yo'l transport hodisasi natijasida sog'lig'iga zarar yetishi yoki o'limiga bog'liq mulkiy manfaatlari Sug'urta obyekti hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxs (haydovchi)ning yo'l transport hodisasi natijasida kutilmaganda yuz berib, o'zidan travmatik shikastlanishni yoki sog'lig'ini buzilishi yoxud o'limga olib kelgan hodisalar ko'zda tutilgan.

IV. SUG'URTA HODISASI

4.1. Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sug'urta turi bo'yicha Sug'urta polisida ko'rsatilgan avtotransport vositasini boshqarayotgan Sug'urtalangan shaxsni hohish irodasiga bog'liq bo'lmagan yo'l transport hodisasi natijasida uning tanasi jarohatlanishi, tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishi yoki o'limi Sug'urta hodisasi hisoblanadi.

4.2. Baxtsiz hodisaga taalluqli bo'lgan omillar:

- Sug'urtalangan shaxsning yo'l transport hodisasi natijasida tana a'zolarining har hil turdagi olgan jarohati (kuyishi, suyak sinishi, chiqishi, yumshoq to'qimalarni shikastlanishi, bo'g'im va mushaklarni uzilishi, noto'g'ri tibbiy manupulyatsiya natijasida a'zolarining uzilishi (jarohatlanishi, vafot etishi), a'zolari olib tashlanishi va hakoza).

4.3. Sug'urta hodisasi deb tan olinmaydigan omillar:

- Sug'urtalangan shaxs transport vositasini boshqarmayotgan paytda, shuningdek yo'lovchi sifatida ketayotgan paytda olgan jarohati yoki o'limi;



- Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sug'urta turi bo'yicha Sug'urta polisida ko'rsatilmagan avtotransport vositasini boshqarib ketayotgan vaqtda sodir bo'lgan yo'l transport hodisasi natijasida haydovchining olgan jarohati yoki o'limi;
- Sug'urta qildiruvchining ruhsatisiz (Sug'urta qildiruvchi tomonidan berilgan yozma ravishdagi ishonchnomasiz) avtotransport vositasini boshqargan haydovchining olgan jarohati yoki o'limi;
- barcha hildagi o'tkir surunkali va nasliy kasalliklar (shu jumladan infarkt, insult va to'satdan a'zolari kasallanishi, kasallikni nasldan naslga o'tish natijasida uni rivojlanishi), anafilaktik shok va oziq-ovqat toksikoinfeksiyasi (salmonellez, ichburug' va boshqalar);
- Sug'urtalangan shaxsning qasddan o'z hatti-harakatlari natijasida olgan jarohati yoki o'limi tergov yoki sud tashkilotlari tomonidan qasddan sodir etilgan deb topilsa;
- Sug'urtalangan shaxs alkogolli ichimlik, giyohvand yoki zaharli moddalar ta'sirida mast holatda avtotransport vositasini boshqarishi, shuningdek ushbu avtotransport vositasini boshqarishni spirtli ichimlik, giyohvand va zaharli moddalar ta'sirida mast holatda bo'lgan shaxsga berish oqibatida yuzaga kelgan jarohat yoki o'lim;
- yadro portlashi, radiatsiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar, harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq ko'tarilishini har hil turlari oqibatida olingan tan jarohatlari yoki o'lim.

V. SUG'URTA SHARTNOMASI (SUG'URTA POLISI)NI TUZISH TARTIBI

- 5.1. Sug'urtalovchi sug'urta mukofoti to'langanligi haqidagi tasdiqni olgandan so'ng, sug'urtalovchining axborot tizimi avtomatik ravishda sug'urta polisini rasmiylashtiradi. Elektron sug'urta polisi ma'lumotlari va sug'urta polisini yuklab olish havolasi sug'urta qildiruvchining elektron pochta manziliga yoki telefon raqamiga SMS orqali yuboriladi.
- 5.2. Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga Sug'urta shartnomasini tuzish istagini yozma (1-Ilova) yoki og'zaki bildiradi.
- 5.3. Sug'urta qildiruvchi yuridik shaxs bilan Sug'urta shartnomasi (2-Ilova) tuziladi. Sug'urtalovchining hisob raqamiga Sug'urta shartnomasida belgilangan Sug'urta mukofoti kelib tushgandan so'ng Sug'urta qildiruvchiga 3 kun ichida Sug'urta polisi beriladi.
- 5.5. Har bir Sug'urta qildiruvchi uchun bir marotaba Sug'urta polisi yozib beriladi.
- 5.6. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda Sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchining rasmiy veb sayti yoki tarkibiy hududiy filial va sug'urta markazlariga murojaat qilishi orqali mazkur sug'urta polisini nusxasini olishi mumkin
- 5.7. Sug'urtalovchi Sug'urta shartnomasini tuzishda Sug'urta syurveyeri xizmatlaridan foydalanishi mumkin.

VI. SUG'URTA SHARTNOMASI (SUG'URTA POLISI)NI AMAL QILISH VA TUGASH MUDDATI

- 6.1. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) 1 (bir) yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuziladi.
- 6.2. Sug'urta shartnomasi quyidagi hollarda o'z kuchini yo'qotadi:
 - Sug'urta muddati tugaganda;
 - Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatini to'liq hajmda (Sug'urta puli miqdorida Sug'urta to'lovi) bajarganda;
 - Sug'urtalangan shaxs vafot etganda;
 - Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta mukofoti o'rnatilgan muddatda va miqdorda to'lanmaganda;
 - Tomonlar hohishi yoki talabi bilan (30 kun oldin ogohlantirgan holda).



VII. SUG'URTA PULI

7.1. Sug'urta puli Sug'urta hodisasi natijasida Sug'urtalangan haydovchi yoki naf oluvchi shaxsga Sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan mablag'ning eng yuqori miqdori.

7.2. Sug'urta pulining miqdori Sug'urta qildiruvchi o'rtasida kelishilgan holda belgilanadi.

VIII. SUG'URTA MUKOFOTI

8.1. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)ga asosan Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'lanadigan pul mablag'i (badal).

8.2. Sug'urta mukofotini miqdori jamiyat Boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan sug'urta tarifiga ko'ra hisoblanadi.

8.3. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) huquqlari:

a) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta tovonini olish;

b) Sug'urta tovonini olish uchun naf oluvchi shaxsni tayinlash va Sug'urta hodisasi ro'y bergunga qadar uni boshqa shaxsga almashtirish;

d) Sug'urta polisi yo'qotilganda uning dublikatini olish.

9.2. Sug'urta qildiruvchi (Sug'urtalangan shaxs) majburiyatlari:

a) Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da belgilangan tartibda va muddatda sug'urta mukofotini to'lash;

b) Sug'urta shartnomasi tuzilayotganda Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lib, Sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni Sug'urtalovchiga xabar qilish;

d) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda (30 kun ichida) bu haqda Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilish;

e) Sug'urtalovchiga Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini tasdiqlovchi va 10.5.-bandda ko'rsatilgan sug'urta ta'minotining miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim qilish;

f) Sug'urtalovchining talabiga ko'ra Sug'urta ta'minoti miqdorini aniqlash maqsadida tibbiy ko'rik (komissiya) dan o'tish.

9.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Sug'urta tovonini to'langandan so'ng 4.3.- bandda keltirilgan holatlar aniqlanganda Sug'urta qildiruvchiga nisbatan da'vo talabini qilish;

b) haydovchi uchinchi shaxslar aybi bilan jarohat olganda to'langan sug'urta tovonini miqdorida Sug'urtalovchi aybdor shaxsga nisbatan regress qilish;

d) Sug'urta ta'minoti miqdorini aniqlash uchun zarur hujjatlarni talab qilish;

e) Zarur hollarda Sug'urta hodisasiga aloqador batafsil ma'lumot olish mumkin bo'lgan tibbiyot muassasalaridan, huquqni himoya qilish organlaridan va boshqa tashkilotlardan ma'lumotlar so'rash, shuningdek Sug'urta hodisasi sabablari va holatlarini mustaqil aniqlash;

f) Sug'urtalangan shaxsdan sog'lig'i holatini baholash maqsadida tibbiy ko'rikdan o'tishni talab qilish.

9.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchini Sug'urta Qoidalariga bilan tanishtirish;

b) Sug'urta qildiruvchi Sug'urta mukofoti to'lagandan so'ng 3 kundan kechiktirmay Sug'urta polisini berish;



- d) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta ta'minoti to'lovini Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi)da belgilangan muddatda amalga oshirish (yoki to'lovni rad etish);
- e) Sug'urta to'voni to'lanishi yuzasidan rad javobini berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan hollarda, bu haqda Sug'urta qildiruvchiga 15 kun ichida yozma ravishda xabar berish.

X. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

10.1. Sug'urta hodisasi yuz berganda transport vositalarini boshqargan Sug'urtalangan shaxsga yoki naf oluvchi shaxsga shartlashilgan Sug'urta puli yoki uning tegishli qismini Davlat ijtimoiy ta'minot pulidan qat'iy nazar to'la yoki qisman to'lashi lozim.

10.2. Sug'urta tovonining miqdori sug'urta hodisasi xususiyatidan va belgilangan Sug'urta puli miqdoridan kelib chiqib Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-iyundagi 141-son qaroriga 4-ilova qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalarini"ning 7-ilovasi "Transport vositalari egalarini fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi shartnomasi bo'yicha jabrlanuvchining sog'ligiga yoki hayotiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'lov jadvali"ga binoan aniqlanadi.

10.3. Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtalangan shaxs (haydovchilar)ning bir necha bor Sug'urta hodisalari oqibatida olgan sug'urta ta'minoti to'lovining umumiy summasi Sug'urta puli summasidan oshib ketmasligi lozim.

10.4. Sug'urta hodisasi natijasida transport vositasini boshqarayotgan Sug'urtalangan shaxs (haydovchi) vafot etganda Sug'urta shartnomasida belgilangan Sug'urta puli to'liq to'lanadi.

10.5. Sug'urta tovonini olish uchun Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) To'lov jadvalida ko'zda tutilgan yo'l transport hodisasi asoratlari kelib chiqqanda:

-Sug'urta polisining asl nusxasi;

-Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha Sug'urta polisining asl nusxasi;

-Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi shaxs)ning arizasi;

-avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjat;

-jarohat tufayli davolanligi to'g'risida davolash-profilaktika muassasasidan ma'lumotnoma yoki Sug'urta hodisasi sabablari, sanasi, tashhisi, davolash diagnostikasi-davolanish davomiyligi ko'rsatilishi lozim bo'lgan boshqa tibbiy hujjat;

-IIB YHXB tomonidan berilgan Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjat;

-zarur hollarda rentgen surati;

-shaxsini tasdiqlovchi hujjat.

b) Yo'l transport hodisasi natijasida vafot etganda:

-Sug'urta polisining asl nusxasi;

-Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisining asl nusxasi;

- naf oluvchi shaxs (voris)ning arizasi;

-avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjat;

-IIB YHXB tomonidan berilgan Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjat;

-FHDI bo'limidan o'lim to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

-vorislik huquqiga egaligini tasdiqlovchi hujjat;

-vorisning shaxsini tasdiqlovchi hujjati.

10.6. Sug'urtalangan shaxs (haydovchi)ning yo'l transport hodisasi oqibatida yumshoq to'qimalari, qulog'i, ko'zi, siydik yo'llari, jinsiy a'zolari shikastlanganda sug'urtalovchi shikastlanish oqibatlarini aniqlash maqsadida uni tibbiy ko'rikdan o'tkazish uchun mutaxassis shifokor huzuriga yuborishi lozim.

10.7. Sug'urta to'voni sug'urta hodisasi tan olinganligi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan boshlab 10 bank kun ichida sug'urta to'voni to'lab beriladi.



XI. SUG'URTA TOVONI TO'LASHNI RAD ETISH

11.1. Sug'urtalovchining Sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga ular Sug'urta tovonini yoki Sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 15 kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablari asoslantirilgan dalil-isbotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

11.2. Sug'urtalovchi Sug'urta tovonini to'lashni rad etganda Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi shaxs) unga nisbatan sudda da'vo qo'zg'atish yo'li bilan e'tiroz bildirishi mumkin.

11.3. Sug'urtalovchi quyidagi holatlarda Sug'urta tovonini to'lashni rad etishga haqli:

-agar Sug'urtalangan shaxs (haydovchi) mazkur Qoidalarining 9.2.-bandining "d" kichik bandiga ko'ra tibbiy ko'rikdan o'tish talabini rad etsa;

-Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi yoki uning xususiyatlarini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim qilmaganda;

-haydovchining jarohati yoki vafot etishi mazkur Qoidalarining 4.3.-bandida ko'rsatib o'tilgan holatlar natijasida bo'lsa.

XII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

12.1. Mazkur Qoidalar asosida tuzilgan Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) shartlarini bajarmaganlik yoki kerakli darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi

12.2. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) shartlarini bajarmaganligida tomonlar bir-birlariga jarima o'rnatishlari mumkin.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda tomonlar to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita pora berish/olish, tijorat poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilish, shuningdek huquqni buzuvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va boshqa korrupsiya huquqbuzarliklariga qarshi kurashish bo'yicha qonunlar, xalqaro standartlar va xalqaro shartnomalar talablarini buzmaslik majburiyatini oladilar.

13.2. Taraflar, mazkur shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab, ularning affilangan (o'zaro bog'liq) vakillari, xodimlari, ularning nazorati ostida yoki ta'sir ko'rsatadigan boshqa shaxslar tomonidan kelajakda, ushbu shartnomani tuzish hamda bajarish bilan bog'liq har qanday turdagi noqonuniy pul va boshqa imtiyozlarni taklif, talab qilmasliklarini, shuningdek, qabul qilmasliklarini kafolatlaydilar.

13.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tegishli Tomon yozma ravishda xabardor qilingan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni buzilish sodir bo'lmagani yoki bo'lmasligi tasdiqlanmaguncha to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiqlash yozma xabar yuborilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

13.4. Yozma bildirishnomada tomon kontragent, uning filali, xodimlari yoki vositachilari tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, shuningdek jinoyatdan olingan daromadni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlar sodir etishda hamda har qanday qoidalarining buzulishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligi ishonchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallar taqdim etishi shart.

13.5. Agarda yuqorida keltirilgan talablar bajarilmasa, shu jumladan tomonlar tomonidan qabul qilingan korrupsion xatarlar bartaraf etish yoki kamaytirishga olib kelinmagan bo'lsa,



«O'ZAGROSUG'URTA»
AKSIYADORLIK JAMIYATI

boshqa tomon shartnomani bekor qilishga yoki shartnomani to'xtatib turishga haqli. Ushbu shartnoma korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi bandga muvofiq tashabbusi bilan bekor qilingan tomon bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

XIV. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

14.1. Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) bo'yicha sug'urta to'voni olish uchun da'vo talab qilish huquqi to'lovga bog'liq sug'urta hodisasi kelib chiqqan vaqtdan boshlab uch yil ichida saqlanadi.

14.2. Mazkur Qoidalar asosida tuzilgan Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) bo'yicha Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi o'rtasida kelib chiqqan barcha nizolar o'zaro kelishuv orqali, kelishish imkoni bo'lmagan holatlarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

XV. QOIDANING KUCHGA KIRISH TARTIBI

Mazkur Qoidalar "O'zagrosug'urta" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi.